



MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI YOSHIDAGI BOLALARINI KOSMONAVTLIK KASBI BILAN TANISHTIRISH

Karimova Dilbar Tashpulatovna

Toshkent pedagogika kolleji o`qituvchisi

MTT-larda tashkil etilayotgan mashg`ulotlarda yoki markazlardagi faoliyatlarda shuni kuzatishimiz mumkinki, ba`zi bolalar juda faol, qiziquvchan, tinimsiz savollar beradi, hamma narsani bilgisi keladi. Lekin tarbiyachi tushuntirayotgan narsaga befarq, shug`ullanish o`rniga hayol parishon bo`lib o`tirgan bolalar ham yo`q emas.

Yurtimizda sodir bo`layotgan voqealar, yangi qurilishlar, ajoyib o`zgarishlar hammamizni xavasimizni keltirib, ichimizdan bizda xursandchilik xissini uyg`atmoqda. Bunday o`zgarishlarni yuqori malakali mutaxassislar, turli kasb egalari qilishmoqda. Bolalarning aka-opalari maktablarda, texnikum va oliygoxlarda o`qib bilim olib, izlanishyapti, xattoki chet davlatlarda o`qib kelib turli xil kasblarni yuqori cho`qqilarini egallashmoqda.

Ma`lum bir kasb egasi bo`lish uchun, u hoh o`qituvchi, shifokor, xaydovchi, artist, yozuvchi, rejissyor yoki kosmonavt bo`lsin u bu kasbni egallashda kichik yosh ya`ni bog`cha, maktab, texnikum, oliygoxlarda, magistraturalarda a`lo baholarga o`qishi, mustaqil izlanishi kerak bo`ladi.

Undan tashqari turli qo`shimcha bilimlar olishi bu ixtiyoriy: musiqa asbobida chalishi, rassomchilik, sport, xunarmandchilik, tikuvchilik, chet tillarini o`rganishi va boshqa to`garaklarga, markazlarga qatnashib dunyoqarashini kengaytirishi va kelgusida turli millat vakillari bilan har sohada muloqotga kirisha oladigan inson bo`lib yetishishi lozim.

Albatta, kelgusida farzandlarimiz malakali mutaxassislar, kasb egalari bo`lib yetishishlarida avvalom bor ota-ona, buvi-buvalar, tarbiyachi va o`qituvchilar turadi.

Buning uchun kichik yoshdan biz oilamizda yoki Vatanimizda yoki boshqa yurtlarda yashab yuqori muvafaqqiyatlarga erishgan insonlar haqida farzandlarimizga gapirishimiz, ana shu inson mana shu darajaga erishishida u maktabda a`lo bahoga o`qigani, sport bilan va boshqa to`g`arak yoki markazlarga qatnashgani, tinimsiz o`z ustida ishlagani v`hk haqida tinimsiz gapirib, ularga “Men hamma narsaga o`zim, o`z kuchim, bilimim va mehnatim bilan erishaman” degan fikrda katta bo`lishiga erishishimiz kerak.

Ba`zi bolalarimiz mening kelajagimni ota-onam hal qilishadi, ular har doim meni qo`llab-quvvatlashadi, men bu ishlar bilan shug`ullanmasam ham bo`ladi, degan fikrga bormasliklariga harakat qilishimiz kerak, aks holda bunday ota-onasi kuchi, mansabi, puliga ishonib katta bo`layotgan bolalar albatta hayotlarida qo`qilishadi. Bunday holatlarni hayotimiz davomida guvohi bo`lib turibmiz.

Bunday holatlarga tushmaslik uchun bolalarga kichik yoshdan hashrga chiqqan o`quv qo`llanmalar olib berib ularni o`qib berishimiz, turli xil muzey va ko`rgazmalarga olib borishimiz, turli kasblar haqida tushuncha berib, bolaning ham nimaga qobiliyatli ekanligini aniqlab ulardagi u yoki bu sohadaga tegishli qobiliyatni rivojlantirishimiz kerak.



Kichkintoylarni kichik yoshdan boshlab bilim olishga qiziqishini uyg`otsak uni kelajakda O`zbekiston Respublikamiz ravnaqiga o`z xissasini qo`shadigan, ota-onasi va muallimlariga rahmat keltiradigan, Vatanimiz, halqimizga foydasi tegadigan inson bo`lib yetishishiga erishamiz.

Tayanch so`zlar:

Termobarokamera-(termal bosim kamerasi)-har qanday maxsus sharoitda tuzilmalarni sinash uchun mo`ljallangan qurilma.

Surdokamera-bu tovush kamerasi. Bu maxsus tadqiqotlar va kosmonavtlarni tayyorlash uchun ovoz o`tkazmaydigan xona.

Skafandr-uchuvchi, kosmonavt, astronavt va g`avvoslarning germetik kiyimi.

Maktabga tayyorlov guruhi yoshidagi bolalarni kosmonavtlik kasbining besh xil sifati bilan quyidagicha tanishtirish mumkin:

Tarbiyachi so`raydi: Bolalar havo transportiga nimalar kiradi? (Samalyot, vertolyot, va raketa v.h.k)

Uchuvchi bo`lishni orzu qilmagan bola bo`lmasa kerak. Uchuvchi bo`lish uchun nimalarni bilish kerak, nimalar qilish kerak? (mashg`ulotlarda barcha berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, maktabda yaxshi o`qib barcha fanlardan bilimlarni o`zlashtirish, mustaqil izlanishi, sport bilan shug`ullanish, chet tillarni o`rganishi...)

Tarbiyachi: Kosmonavtlar chet tillaridan rus va ingliz tilini yaxshi bilishlari kerak.

Uchuvchilarning ichida kosmonavt bo`lish orzusida yurganlar talaygina. Biroq bu sohaga hammani ham olaverishmaydi? Buning uchun uchuvchi qanday sifatlarga ega bo`lishi kerak, nima deb o`ylaysiz? B/j.....

Kosmonavtlik kasbi beshta asosiy sifatlarni talab qiladi?

- 1.Soppa-sog` bo`lishi;
- 2.Chuqur bilimli-(intelektli);
3. Chidamli, temir irodali bo`lishi lozim.
4. Ijtimoiy mahorat;
5. Sabr.

Kosmik fazoga dastlab Yer sun`iy yo`ldoshlarini, Oy va sayyoralararo avtomatik stansiyalarni olib chiqilgan. Shundan keyingina kosmik orbitalarda insonlar uchishgan. Ularni biz kosmonavtlar deb ataymiz.

Birinchi koinotga parvoz qilgan fazogir kim edi?

- To`g`ri, Yuriy Gagarin (1961-yil 12 aprel).

Xo`sh kosmonavtlik kasbining o`zi nima? U kishidan qanday sifatlarni talab qiladi?

Kosmonavtlar koinotga uchganlarida masalan bir oyga ketishdi deylik, bu vaqt davomida ular butunlay boshqacha sharoitda tanho yashab, ilmiy izlanishlar olib boradilar. Sizchi siz bunday sharoitda yashay olarmidingiz? Kuni bilan turli xil o`yinlar o`ynaysiz, hohlagan ovqatlarni onajonlaringiz pishirib beradi, yam-yashil salqin ko`chalar, o`yingohlar va dalalarni bunday sharoitga almashtira olarmidingiz?

Bu sinovlarning barchasiga chidash uchun kosmonavt nihoyatda sog`lom, jismoniy jihatdan chiniqqan bo`lishi lozim. Bo`lajak kosmonavtlar uchishga uzoq yillar tayyorlanishadi. Ular muntazam ravishda sportning har xil turlari bilan shug`ullanishadi,



parashyutlarda sakraydilar, yengil atletika bilan shug'ullanishadi. Chet tillarini o'zlashtirishadi. Uchish paytida havo harorati va bosimi o'zgarganida kosmonavt o'zini qanday his etishi termobarokameralarda sinab ko'riladi. Kosmonavtlar uzoq muddat surdokameralar, ya'ni bir kishilik kameralarda yashaydilar. Har xil sharoitga tayyor turish uchun ular tinimsiz mashq qiladilar.

Bilasizmi bolalar koinotda juda sovuq. Agar u yerga maxsus kiyim kiyib chiqilmasa o'sha zahotiyuq muzlab, muz parchasiga aylanib qolish mumkin. Shuning uchun koinotga uchmoqchi bo'lgan kosmonavtga mana bunday skafandrlar kuygizishadi. Skafandrlar qulay va iliq bo'lgani uchun u kosmonavtlarni koinotda muzlab qolishlaridan asraydi. Undan tashqari skafandrni kiygan kosmonavtlar unda bemalol nafas olishadi, chunki skafandr insonni havo bilan ta'minlaydi.

Kosmonavtlar raketada o'z o'rindiqlariga moslashib o'tirib olganlaridan so'ng teskari sanoq boshlanadi. "Besh, to'rt, uch, ikki, bir, PUSK!"

Raketa Yerdan uzilgach uning ostidan juda kuchli olov chiqib boshlaydi, va u uzoq koinot sari parvoz qiladi. U baland va yanada balandroq ko'tarilib, bulutlardan ham yuqoriroqqa chiqib ketadi va u yerdan kosmonavtlarga ajoyib manzara ko'rinadi,

Koinotda kosmonavtlar ish jarayonida turli muammolarga duch kelishadi, ular bu muammolar yechimini tez hal qila bilishlari, qo'rquvni yengish hissi, g'ayritabiiy, ba'zan chidash qiyin bo'lgan uchish sharoitiga ko'nikish hissiyotlari paydo bo'ladi. Kosmonavt ekipaj a'zolari bilan do'stona munosabatda bo'lishi, qo'rslik qilmaslik, urishmaslik, so'kinmaslik va hech kimni haqorat qilmasligi kerak. Istalgan vaqtda sherigining o'rnini bosa olishi va uchish dasturini bajarishga tayyor turishi lozim.

Kosmonavt kema yulduz yo'lovchi emas, u avvalo uchuvchi va shuning uchun kema tizimi ishini nazorat qilishi, uning uchishini boshqarishi lozim. Kosmonavt kosmik kema kabinasiga o'tirishdan avval matematika, fizika, astronomiya va bir qancha fanlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

1-topshiriq: Bolalar oldilariga yassi geometrik shakllar va Yerning sun'iy yo'ldoshlari va raketa tasvirlangan rasmlar qo'yiladi. Bolalarga ana shu namunalar asosida yoki o'zlari ixtiyoriy ko'rinishdagi kema va Yerning sun'iy yo'ldoshlarini yassi geometrik shakllardan yasashlari taklif etiladi.

2-topshiriq: Labirint. Rasm o'rtasida labirint, uning chiqish yo'llarida quyosh, Oy, Yer va raketaning start maydoni tasvirlangan bo'lishi kerak.

Birinchi inson qadami Oy satxiga 1969 yil etdi, kosmonavtlar u yerda bir sutkadan kam vaqt bo'ldilar. Shunga qaramay bu dunyoda tarixiy voqea bo'lib qoldi. Senda ham bu parvozni qaytarish imkoniyati bor. Mana bu raketani avval labirintdan to'g'ri Oyga, keyin esa yana Yer tomon parvoz qildir. Sen bu topshiriqni bir sutkadan kamroq vaqtda bajarishing mumkin.

Tavsiya:

1. Agar bolangiz bilim olishga qiziqishi bo'lmasa, hayol parishon bo'lib o'tirsa, befarq bo'lsa u bilan suhbatlashing, u nimaga qiziqishini so'rang, unga rangli rasmlar, rangli qalam va bo'yoqlar, stol o'yinlari, konstruktor va boshqotirma o'yinlarini olib bering. Kitobchalarni o'qib bering, she'r, ertak yoki hikoyalardagi qahramonlar hatti-harakatlarini



muhokama qiling, ma`lum bir voqea ustida to`xtab, “Bunday holatda sen qanday yo`l tutgan bo`larding?”- deb so`rang. Muammoli vaziyatlar yechimini hal qilishiga erishing. Bolaning fikrini biling.

2. Rasm chizishda nima chizmoqchiligini so`rang, rasm chizib bo`lgandan so`ng u nima tasvirlagani haqidagi fikrini biling, agar bola ishidagi qandaydir kamchiliklar ko`rsangiz butun mahoratingizni ishga solib, bolani hafa qilmagan holda ishdagi xatoluklari haqida to`xtalib o`ting, to`g`ri ko`rsatma bering. (Shunda bola keyingi safar rasm chizishda hatolikka yo`l qo`ymaydi)

3. Bola televizorda har xil multfilm va kinofilmlar ko`radi. Unda bo`layotgan voqea-hodisalar haqida ham bolangiz fikrini so`rang, undagi qaxramonlarning ijobiy va salbiy hatti-harakatlarini muhokama qiling. Keyin o`zingiz chiroyli qilib bu voqeadagi to`g`ri yo`lni tushuntiring, maslahat va ko`rsatma bering (faqat qo`rqitmang, baqirmang, kamsitmang, haqorat qilmang, urmang) bola bu to`g`ri yoki no`to`g`ri ish yoki harakatligini anglab yetsin, bunda unga ko`maklashing. (Avtoritarlikdan voz keching, mehribon ota-ona, tarbiyachi bo`ling)

Unutmang! Biz kattalar bolalarimizga o`rnak-namunamiz. Bolalar esa bizning ko`zgidagi aksimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari” O`RMTV Toshkent-2020
2. “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturi O`RMTV Toshkent-2022
3. «Bolalar ensiklopediyasi». – Toshkent, 2000 «Davlat ilmiy nashriyoti.
4. <https://www.google.com/search?client=firefox-b-d&q=koinot+sirlari>.